

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

## FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA FAKULTETI



## FILOLOGIYA TA'LIMI MASALALARI: MUAMMO VA UNING INNOVATSION YECHIMLARI

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN  
MATERIALLARI TO'PLAMI

I-QISM



---

# **OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

# **FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

# **FILOLOGIYA FAKULTETI**

**"FILOLOGIYA TA'LIMI MASALALARI: MUAMMO VA UNING YECHIMLARI"**  
**MAVZUSIDAGI XALQARO-AMAIL ANJUMAN MATERIALLARI TO'PLAMI**

## **I-QISM**

**2022-YIL 11-MAY**

---

**"ВОПРОСЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМНЫЕ  
ВОПРОСЫ И ИХ ИННОВАЦИОННЫЕ РЕШЕНИЯ" СБОРНИК  
МАТЕРИАЛОВ МЕЖДУНАРОДНОЙ КОНФЕРЕНЦИИ**

---

## **ЧАСТЬ I**

**11 МАЯ 2022 ГОДА**

---

**"ISSUES OF PHILOLOGICAL EDUCATION: PROBLEM ISSUES AND  
THEIR INNOVATIVE SOLUTIONS" COLLECTION OF MATERIALS OF THE  
INTERNATIONAL CONFERENCE**

---

## **PART I**

**MAY 11, 2022**



## MURABBA'I MUSAJJA'GA DOIR NAZARIY QARASHLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6582616>

*Rajabova M.B, BuxDU dotsenti  
Ibragimova Nilufar, BuxDU talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada musammatlarning bir turi bo‘lgan murabba’ haqida fikr yuritiladi. Murabba’ haqidagi nazariy ma’lumotlarga munosabat bildirilidi.

**Kalit so‘zlar:** Ahmad Taroziy, musammat, murabba’, saj’, murabba’i musajja’.

**Аннотация:** В статье будет рассказано о мураббаъ, которое является разновидностью мусаммат. Реагировали на теоретические сведения о нём.

**Ключевые слова:** Ахмад Тарази, мусаммат, мураббаъ, саджъ, мураббаъи мусаджасъ.

**Annotation:** The article discusses murabba, a type of musammat. Theoretical information about murabba will be commented on.

**Keywords:** Ahmad Tarozi, musammat, murabba ', saj', murabba'i musajja '.

Ma’lumki, murabba’ musammatlarning bir turi bo‘lib, uSharq mumtoz adabiyotning she’riy shakllaridan biridir. Uning shakllanishi bevosita xalq og‘zaki ijodiyotiga borib taqaladi.

O‘zbek mumtoz abiyotshunosligining ilk namunasi bo‘lgan Ahmad Taroziyning "Funun ul- balog‘a" asarida musammatlarning besh turi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Jumladan, asarda murabba’ haqida quyidagi nazariy ma’lumot keltirilgan: "**Musammat besh turluk bo‘lur: musammati murabba’, musammati musaddas va musammati muxammas, musammati muashshar**" [1,54]. Shu o‘rinda adabiyotshunos olimning musammatlarning murabba’ turi haqidagi fikrlari ham e’tiborni tortadi. Olim murabba’ haqida to‘xtalar ekan, quyidagicha fikr bildirib o‘tadi: "... Ammo musammati murabba’ aningtek bo‘lurkim, she’rni to‘rt qism qilurlar. Uch qismning oxirinda saj’ riroyat qilubtur. To‘rtinchi qismda qofiya keltururlar. Misoli bu:

Ey orazi **rashk-i** qamar, zulfung g‘amida har **sahar**

Chin- u Xo‘tanda **mushk-i tar** oshufta-i shaydo bo‘lur.

Dar lahma, ey mohi **Xo‘tan**, bo‘lsang xiromon dar **chaman**,

Faryodu nolish yuz **tuman** har go‘shadin paydo bo‘lur" [1, 54].

Yuqoridagi murabba’da "qamar", "sahar", "mushk-i tar" so‘zлari ichki qofiyani tashkil qilgan , "shaydo" so‘zi esa asosiy qofiya bo‘lib kelgan. Olim ta’kidlagan murabba’ning bu turi g‘azali musajja’ shakliga o‘xshaydi. Keyingi ikki misrada ham "Xo‘tan", "chaman", "tuman" so‘zлari xuddi shunday ichki qofiyani hosil qilgan. Ahmad Taroziyning murabba’i musajja’ga oid bildirgan fikrlarini mumtoz va zamonaviy adabiyotshunoslikdagi nazariy ma’lumotlar bilan qiyoslab o‘rganishga harakat qildik.

Atoullohu Husayniyning “Badoye’ us-sanoye” asarida murabba’ga shunday ta’rif berilgan: “Avvalgi nav‘i uldurkim, uch misrani bir qofiyada berib to‘rtinchi misrani she’r o‘zagini tashkil etgan o‘zga qofiyada berurlar” [5, 72].



O'zbek mumtoz adabiyotidagi kichik lirik janrlar ustida tadqiqot olib borgan adabiyotshunos olim R.Orzibekov murabba'ning shu shakldagi she'rlardan farqli jihatlariga quyidagicha izoh beradi: "...murabba'larning klassik formasi ma'lum va yaxlit mazmunni ochishga mo'ljallangan bir qancha to'rtlik bandlarning birikishidan tashkil topganligi, musammatlarning boshqa xillariga xos qofiya tartibiga va vazn o'lchovlariga ega bo'lishi, g'azal, musammat, mustazodlardagi kabi oxirgi satrlarda shoir taxallusining ko'rsatilishi va hokazo bilan har bir to'rtligi o'zicha mustaqil sanalgan, har biri o'ziga xos qofiya tartibiga, vazn o'lchovlariga, mavzu doirasiga, poetik usullariga ega bo'lgan ruboiy, tuyuq, qit'a, dubaytiy va taronalardan farq qilib turadi" [2, 64].

Zamonaviy adabiyotshunoslilikda "Murabba" (arab.to'rtlik) - she'rshunoslilikda to'rt misradan iborat she'r deya tushuniladi. Murabba' so'zining asl ma'nosi geometrik shakl kvadratga to'g'ri keladi. Zamonaviy she'rshunoslilikda murabba' deganda to'rt misradan iborat she'r tushuniladi. "Murabba" (arabcha – to'rtlik degani) har bandi to'rt misradan tashkil topgan she'riy shaklning nomi sanaladi. Bu badiiy san'at emas, balki she'r turlaridan biridir [3, 304].

Keltirilgan nazariy ma'lumotlarda Ahmad Taroziy ta'kidlagan "murabba'i musajja"ga xos fikrlar kuzatilmadi. Demak, Ahmad Taroziy "murabba'i musajja"ni murabba'ning bir turi sifatida sanagan. Ya'ni g'azalning g'azali musajja' turi bo'lgani kabi.

Ahmad Taroziyning "murabba'i musajja" bilan bog'liq qarashlari musammat va sa'jning o'zaro aloqadorligidan dalolat beradi. Fikrimizni Atoulloh Husaynining quyidagi fikrlari tasdiqlaydi: "Saj'ning musammatga ta'siri haqida Atoulloh Husayniy shunday yozadi: "Rashididdin Vatvot deptur: "Bu san'at andog' bo'lurkim, shoir bir baytni to'rt teng bo'lakka bo'lgay, uch bo'lagining oxirida saj' bergay va to'rtinchi bo'lakda qofiya keltirgay. Bu she'rni musajja' deb ham atarlar" [5, 74].

Ogahiy musammatlarini o'rgangan olima G. Xolliyeva ham musammatlarning, jumladan, murabbalarning saj' bilan aloqadorligiga e'tibor qaratadi va Ogahiyning quyidagi murabba'siga munosabat bildiradi:

O'tibdur iltifoting orzusi birla oyu yil

**Ko'zim giryon , tanim larzon, ko'ngil nolonu alkon til**

Boqib ayni karamdin ushbuholimga tarahhum qil

Nigorim mehribonim mukrimat taxtida Sultonim!

Mazkur bandda shoir lirik qahramonning ruhiy iztirobini **ko'zim giryon, tanim larzon, ko'ngil nolonu alkon til** jumlalarida mavjud saj' san'ati orqali yorqin ifodalay olgan. Buni biz ichki qofiya deb ayta olmaymiz, balki nazmdagi saj'ning go'zal namunasi deb aytamiz. Sababi, yuqoridagi tartibga xos saj'lanish shu murabba'ning boshqa bandlarida uchramaydi [4, 41].

Adabiyotshunoslarning ta'kidicha, musammatlar janri xalq og'zaki ijodi ta'sirida, saj' qonuniyati asosida paydo bo'lganligini inobatga olsak, murabba'ning musajja'li turi ham shu ta'sir natijasida yuzaga kelgan. Murabba'ning bu turida ijod qilish g'azali musajja' singari murakkab bo'lganligi bois barcha ijodkorlada kuzatilmaydi.



### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ahmad Taroziy. "Funun ul-balogs'a" - T: Xazina, 1996.
2. Орзабеков Р. Лирикада кичик жанрлар. -Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976.
3. Muhammadova Mahbuba. Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasida ayrim janr va badiiy san'atlar xususiyati", Karabük-2020.
4. Холлиева Г. Оғаҳий-мусамматлари. Тошкент: "Мумтоз сўз", 2019. 41-бет.
5. Хусайний Атоулло Маҳмуд Бадоев ус- саноев. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
6. Ma'rifat R. Sayfi Saroyi g'azallari badiiyati //Conference Zone. – 2022. – С. 122-125.
7. Rajabova M. Алишер Навоийнинг Абдураҳмон Жомийга бағишиланган марсиялари //Центр Научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т.8.– №. 8.
8. Rajabova M. Алишер Навоийнинг нафсни енгиш гоясини мифологик жанг мотиви асосидат асвирлаш маҳорати //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
9. Rajabova M. Алишер Навоий ижодида арус тимсолининг бадиий талқинлари //Центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
10. Садуллоевна Р. Қ. Рауф Парфи Ва Эркин Вохидов шеърлари тадқиқига оид айрим кузатишлар //Бошқарув ва Этика Қоидалари онлайн илмий журнали. – 2021. – Т. 1. – №. 6. – С. 207-210
11. Qodirova R. ABDULLA ARIPOV'S WORK DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE IS INTERPRETED BY NUMAN RAKHIMJANOV //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
- Rajabova M. НЕКОТОРЫЕ РАЗМЫШЛЕНИЯ О ЗАГАДКАХ В РАБОТАХ АЛИШЕРА НАВАИ //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
- Safarova H. BUXORO ADABIY MUHOTIDA MUSAMMAT (OKTAVALAR) SHAKLLANISHI (SAMANDAR VAHIDOV SHE'RLARI ASOSIDA) //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
- Rajabova M. ATOYI LIRIKASIDA BADIY MAHORAT MASALASI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.
- Amonova Z. The influence of the ideas of the hurufism sect on Nasimi's work // ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 8. – №. 8.



<b>Abdullayeva G.</b>	ADABIY IZDOSHLIK VA O'ZIGA XOSLIK	248
<b>Отаханова М.</b>	ЧУСТИЙ ЛИРИКАСИДА ҚОФИЯ ЖИЛОЛАРИ	254
<b>Ахмадчонов П.</b>	РЎЗГОР ВА ОСОРИ САЙФИДДИН МУҲАММАДИ ФАРГОНӢ	258
<b>Tuychiboyeva N.</b>	BOLA RUHIYATIDA MIF VA METAFORA TALQINI. (CH. AYTMATOV ASARLARI MISOLIDA)	264
<b>Олимжонов С.</b>	ҚАҲРАМОН НУТҚИ – ХАРАКТЕР ЯРАТИШ ВОСИТАСИСИФАТИДА	268
<b>Ne'matov A.</b>	AHMAD YASSAVIY HIKMATLARIDA TUPROQ RAMZI	274
<b>Абдуллаева Г.</b>	ИСТИҚЛОЛ ЙИЛЛАРИДА ЗАҲИРИДДИН МУҲАММАД БОБУР ҲАЁТИ ВА ИЖОДИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ	277
<b>Abdusalomova M.</b>	ANVAR OBIDJON IJODIDA O'SMIR OBRAZINING YORITILISHI ("YALTIROQ TUGMA") QISSASI MISOLIDA	280
<b>Shokirova R.</b>	HO'JANAZAR HUVAYDO IJODIDA AHMAD YASSAVIY AN'ANALARI	285
<b>Жўраев И.</b>	МАИШИЙ МУАММОЛАР ИБТИДОСИ	290
<b>Haydarova N.</b>	"OQ KEMA" ASARIDAGI MIFIK TALQINLAR	294
<b>Mirzakarimova X.</b>	O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HIKMATNAVISLIK MAKTABINING SHAKLLANISHI	297
<b>Mamiraliyev Q.</b>	ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK SHE'RIYATIDA JANRLAR MASALARI	302
<b>Xasanova X., Ikromjonova G.</b>	"DONISHMAND SIZIF" ROMANIDA AN'ANAVIY OBRAZNING NOAN'ANAVIY TALQINI	306
<b>Xolmatov D.</b>	OBRAZLAR TALQINIDA BADIY DETALNING O'RNI	312
<b>Ergasheva Sh.</b>	BADIY ASARLARDA AYOL OBRAZI	318
<b>Эшанова З, Махмудова Д.</b>	ИНТЕРАКТИВНЫЕ МЕТОДЫ В ИЗУЧЕНИИ ЛИРИКИ ИКБОЛА МИРЗО	322
<b>Mahkamova Sh.</b>	ADABIYOTDA OT OBRAZIDAGI QANOT DETALI	328
<b>Davronova M.</b>	ODIL YOQUBOV QISSALARIDA TASVIR VA TALQIN VOSITALARI ("QAYDASAN, MORIKO?" QISSASI MISOLIDA)	333
<b>Mirzagaliyeva U.</b>	HIKOYANAVIS YOZUVCHI	337
<b>Мўминова Т.</b>	ЭРКИН АЪЗАМ ҚИССАЛАРИДА БАДИЙ ТАСВИР	341
<b>Abdurahimova M.</b>	NABI JALOLIDDIN IJODIDA PSIXOFIZIOLOGIK VOSITALARNING O'RNI	345
<b>Мухамедова М.</b>	ПОРТРЕТ – ОБРАЗ ЯРАТИШНИНГ МУҲИМ ВОСИТАСИ	350
<b>Tojaliyeva N.</b>	"JUDOLIK DIYORI" ROMANIDA TABIAT TASVIRI	353
<b>Uralova D.</b>	ULUG'BEK HAMDAM HIKOYALARIDA RAMZIY OBRAZLAR OLAMI	358
<b>Boqixonova M.</b>	IQTIDORLI O'QUVCHILARGA ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATINING O'ZIGA XOS USULLARINI TUSHUNTIRISH	363
<b>Абдуллаева В.</b>	XX АСР ЎЗБЕК АДАБИЁТИДА МАРДИКОРЛИККА ОЛИШ ПОЭЗИЯСИ ҲАҚИДА	368
<b>Boqiyeva G.</b>	SAN'ATKOR (XONANDA, SOZANDA) OBRAZINING GENEZISI	373
<b>Sayidolimov J.</b>	SHARQ AGIOGRAFIYASI VA FARIDUDDIN ATTORNING O'RNI	378
<b>Ibragimova N.</b>	MURABBA'I MUSAJJA'GA DOIR NAZARIY QARASHLAR	383
<b>Қаюмова М.</b>	ДАНИЕЛ ДЕФОНИНГ "РОБИНЗОН КРУЗО" АСАРИДА НУТҚ ВА УСЛУБ МУАММОСИ	386